

## AVTOMOBILLARDA YUKLARNI TASHISHDA SAMARADORLIKNI OSHIRISH

**Yusupov Akbar Eshquvvatovich**  
Qarshi Muhandislik Iqtisodiyot Instituti

### ANNOTATSIYA

Yuklarni tashish ularni o‘z vaqtida istimolchilarga etkazib berish uning unumdorligini oshirish bugungi kunning dolzarb masalalardan biridir. Shuning uchun yuklarni tashishda ko‘proq tirkamalardan foydalanilsa maqsadga muvofiq bo‘lar edi.

**Kalit so‘zlar:** Yuklarni tashish, avtomobil transporti, ish unumdorligi, tirkamalarni ishlatish, logistik prinsiplar.

Yuksak darajada taraqqiy etgan hozirgi zamon transportisiz rivojlangan jamiyat asosini yaratib bo‘lmaydi. Chunki transport har qanday mamlakat ishlab chiqaruvchi kuchlarining muhim tarkibiy qismidir. Transport muomala doirasida tayyor mahsulotni tashish bilan moddiy ne’matlar ishlab chiqarishning barcha tarmoqlaridagi ishlab chiqarish jarayonini davom ettiradi va ishlab chiqarish doirasi bilan iste’mol doirasini bir-biriga bog‘lovchi vosita bo‘ladi.

Ishlab chiqaruvchi kuchlarning rivojlana borishi va ijtimoiy mehnat taqsimoti natijasida turli ishlab chiqarish tarmoqlari vujudga keladi. Bunday tarmoqlarga yer osti foydali qazilma boyliklarni ishlab chiqarish sanoati, qishloq xo‘jaligi, mahsulotlarga qayta ishlab berish sanoati va transport kiradi.

Transport muomala doirasida tayyor mahsulotni tashish bilan moddiy ne’matlar ishlab chiqarishning barcha tarmoqlaridagi ishlab chiqarish jarayonini davom ettiradi va ishlab chiqarish doirasi bilan iste’mol doirasini bir-biriga bog‘lovchi vosita bo‘ladi.

Transport xalq xo‘jaligi tarmoqlarini o‘zaro bog‘lovchi vositadir. Xomashyolar, asbob-uskunalar, yarim tayyor mahsulotlar, yoqilg‘i va boshqa turli xil mahsulotlarni sanoat tarmoqlari va korxonalari o‘rtasida tashish transport yordamida amalga oshiriladi.

Biz bilamizki har qanday tashish ishlarini avtomobil transportisiz tasavvur qilib bo‘lmaydi. Shunday ekan hozirgi payitda avtomobil transportiga tirkama ulab ishlatishga etibor qaratilmayapti.

Transport vositalari revojiana borishi bilan birga ularning yuk ko‘tara olish qobiliyati ham oshib bormoqda. Shunga qaramasdan yuk tashuvchi avtomobillarga tirkama ulab ishlatish uning samaradorligini oshiradi.

Avtomobillarda tashishni tashkil etishdagi eng ilg‘or usullardan biri

avtopoyezdlardan foydalanishdir. Avtomobilarga tirkama va yarim tirkama qo'shib ishlatish, transport vositasi birligining yuk ko'tarish qobiliyatini oshirish hisobiga ular unumdarligini ko'p miqdorda oshiradi.

Avtopoyezdlar qo'llanishi natijasida transport ishi birligining tannarxi yakka avtomobil bilan ishlaganiga nisbatan ancha arzon bo'ladi, chunki bunda transport vositalarining unumdarligining oshishi, avtopoyezdlar qo'llashdagi ekspluatatsion xarajatlar oshishidan ko'ra ancha katta bo'ladi[1].

Avtomobilarda yuk tashishni revojlanishi logistika prinsiplarining jumladan "aniq o'z vaqtida" texnologiyasi qo'llanilishiga bog'liq bo'ladi.

Avtopoyezdlar qo'llanishi natijasida transport ishi birligining tannarxi yakka avtomobil bilan ishlaganiga nisbatan ancha arzon bo'ladi, chunki bunda transport vositalarining unumdarligining oshishi, avtopoyezdlar qo'llashdagi ekspluatatsion xarajatlar oshishidan ko'ra ancha katta bo'ladi.

Ekspluatatsion va iqtisodiy sifatli, yuqori unumdarlikka ega transport vositalari hamda ularning uzlusiz ishlashini ta'minlovchi qattiq qoplamali va zarur qurilmalarga ega avtomobil yo'llarining mavjudligi avtomobil transportiga tirkamalarni ulash natijasida tashish jarayonini amalga oshirishning asosiy omili hisoblanadi[2].

Avtomobilarda tashishni tashkil etishda uning ish unumdarligiga har-xil ko'rsatkichlar ta'sir qiladi. Bunday ko'rsatkichlarga avtomobilning yuk ko'tarish qobiliyatidan foydalanish koeffisienti, yo'ldan foydalanish koeffisienti, ish vaqt, ortish-tushurish vaqt, avtomobilni tezligi kiradi. Bu ko'rsatkichlar mayor darajasida bo'lsa ish unumdarligi yuqiri bo'ladi va shu bilan birga avtomobilarga tirkamani ulab ishlatilishi ish unumdarligiga va avtomobilni samaradorli ishlashiga olib kiladi.

## XULOSA

Maqolamning so'ngida yana bir narsani takidlab o'tishni lozim deb topdim. Avtomobil transportiga tirkamalarni ulab ishlatish natijasida yuk hajmi oshishiga va quyidagi natijalarga olib kiladi.

1. Avtomobilning yuk tashish hajmi oshishi;
2. Dvigatelning ortikcha kuvvatidan birmuncha tula foydalaniladi;
3. Avtomobil unumdarligi yakka avtomobilga nisbatan ikki va undan kup marta ortiq;
4. Bir tonna tashiladigan yukka sarflanadigan yonilg'i 20% ga kam;
5. Idish (tara) koeffitsienti (uz ogirligining yuk kutarishiga nisbati) va xarakatlanuvchi qushilmaning narxi kam;
6. Tashish masofasiga bog'liq ravishda tashish tannarxi 20 – 30 % ga kamayadi.

**FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI: (REFERENCES)**

1. B.A.Xo‘jayev «Avtomobilarda yuk va passajirlar tashish asoslari». T.: «O‘zbekiston», 2002
2. И.С.Туревский. Автомобильные перевозки. М.: ИД “ФОРУМ-ИНФРА-М”, 2009
3. В.М.Беляев. Организация автомобильных перевозок и безопасность движения. МАДИ, 2014